# Strategik islohotlar agentligi tomonidan Buxoro viloyati SWOT-tahlili tayyorlandi

Strategik islohotlar agentligining bir guruh xodimlari joriy yilning **29-31 may** kunlari **Buxoro viloyatida** xizmat safarida bo‘lib, safar doirasida ishchi guruh tarkibida tuman va shaharlarning SWOT-tahlilini (***Strengths*** *– kuchli tomonlari,* ***Weaknesses*** *– zaif tomonlari,* ***Opportunities*** *– imkoniyatlar,* ***Threats*** *– xavf-xatarlar*) tayyorladilar. Quyida viloyatning har bir tuman va shaharlari bo‘yicha tayyorlangan tahlil natijalari bilan tanishib chiqish mumkin:

## I. Buxoro tumanining SWOT-tahlili

### Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** *(Buxoro shahar, Kogon, Vobkent, Romitan, Qorovulbozor, Olot, Jondor tumanlari hamda Navoiy viloyati bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37, A-380, A-380a xalqaro yo‘llaridan kuniga 20 ming transport o‘tadi).*

**2.** Meva-sabazavotchilikka ixtisoslashgan **51 ta** tumanlardan biri.

**3.** Tumanda yiliga 100,6 ming tonna sabzavot, 16,7 ming tonna poliz, 39,2 ming tonna meva, 43,8 ming tonna uzum, 31,2 ming tonna paxta, 45,2 ming tonna don va dukkakli don ekinlari hamda 47,8 ming dona qorako‘lteri, 450,4 tonna jun yetishtiriladi.

**4.** Tumanda 88 ta (94 gektar) issiqxonalar **mavjud**.

**5.** Tumanda 3 ta (13,2 gektar) kichik sanoat zonalari hamda
1 ta (4 gektar) Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi, **"G‘ijduvon EIZ"** (69,5 gektar) tuman filiali hamda **“Buxoro Agro EIZ”**ning (500 gektar) tuman filiali **mavjud**.

### Zaif jihatlari

**1.** Markaziy kanalizatsiya tizimi **mavjud emas**.

**2.** Meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlari **yetarli emas** va go‘shtni qayta ishlash korxonalari **yo‘q**.

**3.** Korxonalarni uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uchun elektr energiyasida **uzilishlar mavjud**.

### Imkoniyatlar

Imkoniyatlar

ishlab chiqarayotgan 20 ta xonadonni faoliyatini **kengaytirish va mahalliy sanoat darajasiga olib chiqish** imkoniyati mavjud.

**2.** “**Buxara Varnet**” MCHJ tomonidan 200 ta zamonaviy **gidroponika usulida uy-issiqxona majmualarini qurish loyihasini amalga oshirish** imkoniyati **mavjud**.

**3. Sohibkor**, **Turkon** va **Yangi turmush MFY**larida 500 gektar hosildorligi past bo‘lgan **paxta va g‘alla** maydonlari o‘rnida **uzumchilikni** tashkil qilish **mumkin**.

**4.** Kam quvvatda ishlayotgan meliorativ nasos stansiyasini to‘liq quvvatda ishlatish uchun stansiyadan chiqadigan suvni “**G‘oziobod**” kanaliga tashlashga 4 km yangidan 1 $m^3$ sig‘imli kanal qurish va 2700 gektardan **ortiq yer maydonida suv ta’minotini yaxshilash** imkoniyati **mavjud**.

**5.** Tuman hududidan M-37 va A-380, A-380a **xalqaro yo‘llari** o‘tishini inobatga olib, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyati **mavjud**.

**6.** “**Do‘stlik**” mahallasidagi foydalanilmayotgan markaziy istirohat bog‘i o‘rnida **“Akvapark”** tashkil qilish **mumkin**.

**7.** Buxoro tumanida **“Naqshband”** hunarmandchilik markazi negizida 1,8 gektar maydonda **ekobog‘** *(erta bahordan kech kuzgacha hosil beradigan turli ko‘chatlar o‘tkazish)* tashkil qilish hamda mazkur ekobog‘ ichida turistlar uchun sharoit yaratish **mumkin**.

**8.** Xitoyning “**Zheijang Sunspot New Energy Technology Co Ltd”** korxonasi tomonidan o‘zlashtirilmagan 1000 gektar

### Xavf-xatarlar

**1.** Elektr-energiyasining doimiy qisqa uzilishlari hamda gaz ta’minoti bilan bog‘liq muammolar **mavjud**.

**2.** Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish liniyalari eskirganligi sababli to‘la quvvatda **ishlay olmaydi**, hamda bu liniyalarni ta’mirlash uchun injenerlar **yetishmaydi**.

**3.** Issiqxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarni eksport qilish bilan bog‘liq muammolar **mavjud**.

**4. Iqlim o‘zgarishi.** Ob-havodagi keskin o‘zgarishlarning qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishga salbiy ta’siri **ortmoqda**.

| | |
|---|---|
| yer maydonida qiymati 600 mln dollar bo'lgan fotoelektr stansiyasi hamda **quyosh panellari ostida tut plantatsiyasi** tashkil qilish. 500 MVT elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 12000 tonna tut bargi yetishtirilib, 750 tonna pilla olish imkoniyati yaratiladi, byudjetga 600 mlrd so'm qo'shimcha soliq tushadi, 40 mln doll qiymatdagi maxsulotlar eksport qilinadi va 1000 ta doimiy va 500 ta mavsumiy ish o'rni **yaratiladi**. | |

## II. Buxoro shahrining SWOT tahlili

### Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** *(Navoiy viloyati, Buxoro, Kogon tumanlari bilan chegaradosh).*

**2. Tadbirkor aholi** *(tadbirkorlik subyektlari – 9 638 ta, tadbirkor xotin qizlar soni – 9 ming chakana savdo – 2421,4 mlrd.so'm va xizmatlar hajmi – 2660,2 mlrd.so'm bo'yicha viloyatda birinchi o'rinda).*

**3. "Ishchan" aholi** *(mehnat resurslarining 83 foizi band, viloyatda – 76,5 foiz).*

**4. Unumdor yer** *(paxta hosildorligi 42 foiz)*

**5. Boy diniy va tarixiy meros.** Shaharda 3,2 mln nafar mahalliy turist va 1,5 mln nafar xorijiy turist jalb qilinadi hamda turizm xizmatlari ekporti hajmi 350 mln dollga yetkaziladi. Bu tashrif buyurgan sayyohlar soni 4,7 mln nafarga yetib, 2020 yilga nisbatan qariyb 3,5 baravarga ko'paygani va bunda ulardan shahar iqtisodiga 130 mln dolldan ko'proq valyuta jalb qilingan.

**6.** Viloyatda faoliyat yuritayotgan **xorijiy investitsiya** ishtirokidagi korxonalar soni eng **yuqori ulushga ega** (189 ta, 54 foiz)

### Zaif jihatlari

**1. "Xufiyona" iqtisodiyot darajasi yuqori** *(yiliga 85 mlrd.so'mlik 50 dan ziyod mahsulotlar "yashirin" ishlab chiqariladi).*

**2. Eskirgan infratuzilma** *(ichimlik suv tarmog'ining (305,3 km) – 38,4 foizi, oqava suv tarmog'ining (220,3 km) – 76,2 foizi ta'mirtalab).*

**3. Mehnat resurslari yetishmovchiligi** *(iqtisodiy nofaol aholi ko'p, viloyatdagi ulushi – 24,5 foiz, shahardagi mehnat resursiga nisbatan – 32 foiz, aholi sonidagi yoshlar ulushi 35,1 foiz bo'lib, viloyatdagi o'rtacha 32,5 foizdan baland).*

### Imkoniyatlar

**1. Ziyorat turizmi** *(turistlarni 2 kun olib qoladigan dastur qilib, qo'shimcha 15 million dollar turizm eksporti va 1,5 mingta ish o'rni yaratish imkoni bor).*

**2. Buxoro** shahridagi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi balansida bo'lgan 5 gektar bo'sh yer maydoni (0,7 gektarida bino, 4,3 gektari bo'sh yer maydoni) **mavjud**.

Ushbu hududdagi temir yo'l tarmog'i (vetkasi) korxona xududigacha kirib kelgan bo'lib, eksport-import logistika markazi uchun qulay xududda **joylashgan**.

**3. Bo'sh turgan va samarasiz** 6 ta **davlat obyekti bor** *(birgina Sadriddin Ayniy MFY, xududida joylashgan sanoatchilar ko'chasi 2a-uy bo'sh turgan bino-inshootlarning 2 va 3-qismlarida tayer mato ishlab chiqarish, matoni bo'yash hamda tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish orqali 200 ta yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud).*

**4.** Jami 3 ta **sanoat zonasida** 0,6 gektar **yer uchastkalari sotilmasdan turibdi** *(masalan, 3 ta kichik sanoat zonasida 6 ta yer maydonlari auksion savdolariga chiqarilib sotilganda, tadbirkorlar tomonidan qiymati 12 mlrd so'mlik loyihani boshlaydilar, 30 ta ishchi o'rni yaratiladi).*

**5. Bo'sh turgan xususiy ko'chmas mulklar** *(6 ta binoning 3 ming metr kvadrat maydoni)* **bo'sh turibdi**.

### Xavf xatarlar

*(ishlab chiqarishda yer maydoni yo'qligi sababli 10 dan ziyod tadbirkor boshqa tumanlarga ko'chgan, 8 tasi 65 mlrd.so'mlik zarar ko'rgan, 25 mln.doll.lik eksport yo'qotilgan. Masalan, "Baxor chench tekstil" shahar hududida yer maydoni yo'qligi sababli Kogon tumaniga ko'chirilgan.*

**2. Hududiy loyihalar doirasida investitsiya loyihalarining kamayishi.**

*Buxoro shahrida investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun bo'sh yer maydonlari yetishmovchiligi sababli yangi loyihalar soni 2023 yilga nisbatan 30 loyihaga va 135 ta ish o'rniga kamaygan.*

**3. Soliq qarzdorligi oshib ketishi** *(2023 yilga nisbatan qarzdorlik 25 foizga oshib, 9,3 mlrd so'mga yetgan).*

*Soliq qarzi oshish sababli tahlil qilinganda, tumanda jami 970 ta korxonaning 01.01.2024 yil holatida 7,4 mlrd so'mni tashkil qilib, Shundan 5 ta korxonaning qarzdorligi 2,8 mlrd.so'm.ni tashkil etgan. Buning sababi,*

***1)** Shu paytgacha Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan "Bekjon Treyd" MCHJ bo'yicha kalendar yili tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshib, 307,6 mln.so'm QQSdan, 308,5 mln.so'm foyda solig'idan, 273,4 mln.so'm aksiz solig'idan qarz hosil bo'lgan.*

| | |
|---|---|
| **6. Ijtimoiy soha obyektlari hududida bo'sh turgan** yer maydonlarida (maktablarda) 46 ta konteyner va 11 ta issiqxona tashkil qilish **mumkin**. | ***2)*** *Shunga o'xshash Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi bo'lgan "Komil San teydj" MCHJ bo'yicha kalendar yili tovar aylanmasi 1 mlrd so'mdan oshib, 245 mln so'm* QQSdan, *222,4 mln.so'm foyda solig'idan, 218,2 mln.so'm aksiz solig'idan qarz hosil bo'lgan.*<br><br>4. Import ko'rsatkichlarining keskin yuqorilab borishi (2023 yilda 232,2 mln.doll., o'sish sur'ati 167 foiz) |

## III. Vobkent tumanining SWOT tahlili

| Kuchli jihatlari | Zaif jihatlari |
|---|---|
| 1. **Qulay joylashuv** *(**Navoiy** viloyati, **Peshku**, **Romitan**, **Buxoro** va **Shofirkon** tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo'lidan kuniga 10 ming transport o'tadi).*<br><br>2. **Tadbirkor aholi** *(tadbirkorlik subyektlari – 2 090 ta, tadbirkor xotin-qizlar soni – 1 mingdan ortiq, chakana savdo – 136,4 mlrd so'm va xizmatlar hajmi – 479 mlrd so'm),* mehnat resurslarining 80,6 foizi ish bilan band (viloyatda – 76,5 foiz).<br><br>3. **Tuproq unumdorligi yuqori** *(paxta hosildorligi 45,2 sentner, g'alla - 60,5 sentner)*<br><br>4. **Boy diniy va tarixiy meros** *("Yetti pir" ziyorati, 3-pir Xoja Maxmud Anjir Fag'naviy ziyoratgohi, tumanda 17 ta obyekt bor)*<br><br>5. **Mavjud yirik sanoat korxonalari - 4 ta** tekstil va to'qimachilik *("Vobkent Tola Klaster" MCHJ, "Buxoro Agroklaster" MCHJ, "Kumushkent ipagi" MCHJ, "Agroeksport Grand" AJ).*<br><br>6. **Tuman ixtisoslashuvi** – 2853 gektar mavjud aholi tomorqasi, 1415 gektar 2022-2023 yillarda aholiga ajratilgan dehqon xo'jalik yer maydonlari, 2024 yil 100 gektar sabzavotchilik, 510 gektar yoshlarga yer ajratilib, umumiy 4878 gektar aholi hisobidagi yer maydonlari, 1287 gektar bog'-chorbog'lar mavjud bo'lib, yiliga 45,3 ming tonna meva, 26,7 ming tonna uzum shuningdek 12,3 ming tonna sabzavotlar yetishtiriladi. | 1. **Kambag'allik darajasi yuqori** *(kambag'allik darajasi 8,7 foiz, viloyatda – 8,6 foiz).*<br><br>2. **"Xufiyona"** iqtisodiyot darajasi yuqori *(tadbirkorlar maoshning **30 foizi**ni "konvert" usulida berib kelmoqda).*<br><br>3. Markaziy kanalizatsiya tizimi **yo'q**.<br><br>4. **Kichik va o'rta biznes bilan ishlash tizimi yo'q** *(184 ta yoki 8,8 foiz tadbirkor faoliyatini to'xtagan).*<br><br>5. Tumanda **sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun tabiiy gaz nuqtasi mavjud emas.**<br><br>6. **Xorijiy investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar soni 6 ta.<br><br>7. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash 12,7 foizni tashkil qiladi. |
| **Imkoniyatlar** | **Xavf xatarlar** |
| 1. Sayyohlikni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish **mumkin**. **Ziyorat turizmi** *(turistlarni 2 kun olib qoladigan dastur qilib, qo'shimcha 5 mln dollar turizm eksporti va 200 ta ish o'rni yaratish imkoni bor).*<br><br>2. Faoliyat ko'rsatayotgan tayyor go'sht-sut mahsulotlari va un mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarni modernizatsiya qilish bilan ishlab chiqarishni ko'paytirish **mumkin**.<br><br>3. Aholi tomorqalaridan samarali **foydalanish mumkin** *(umumiy tomorqa maydoni 4880 gektarni tashkil qiladi).*<br><br>4. **Bo'sh turgan va samarasiz** davlat obyektlari mavjud xizmat markazlrini ochish.<br><br>5. **Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash**. *("Vobkent Agro Frukt Tomorqa Xizmat Klasteri" MCHJ negizida uzum va mevalarni qayta ishlash hamda quritish loyihasini amalga oshirish.* | 1. **Aholi daromadlari pastligi** *(rasmiy daromadi 5 mln* so'mdan *yuqori bo'lganlar 7 foiz, viloyatda – 19 foiz).*<br><br>2. Infratuzilma muammolari *(gaz, temir yo'llar tarmog'i)* kichik biznesni rivojlantirishga **to'sqinlik qiladi**.<br><br>3. Yerlarning sho'rlanish darajasi **yuqori.**<br><br>4. Suv tanqisligi muammosi **mavjud.**<br><br>5. Tadbirkorlarning boshqa hududga **chiqib ketishi** kuzatiladi *(elektr energiyasidagi mavjud muammolar uchun 20 dan ziyod tadbirkor boshqa hududga ko'chgan).*<br><br>6. O'rta va yirik korxonalar soni sekin ko'paymoqda *(so'nggi 3 yilda atigi 1 ta yirik korxona paydo bo'lgan, hozir 4 ta yirik va 68 ta o'rta korxona bor).*<br><br>7. Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar soni qariyb 3,5 barobar oshgan. *(2022 yilda 105 ta, 2023 yilda 354 ta)* |

**6.** **“Atirgulchilik Kooperatsiyasi”** *(“**Bukhara Roses**” MCHJ)* negizida 60 gektar maydonda qiymati 4,3 mlrd so‘mlik atirgulchilik kooperatsiyasi loyihasini amalga oshirish.

**7.** Yiliga 6 mln dona manzarali ko‘chatlar yetishtirish loyihasini amalga oshirish uchun 60 gektar yer ajratish.

## IV. Jondor tumanining SWOT tahlili

### Kuchli jihatlari

**1.** Yo‘l bo‘yi infratuzilma va servis rivojlantirish imkoniyatlari **mavjud** *(Peshku, Buxoro, Rometan, Qorako‘l, Olot bilan chegaradosh va kuniga **18 ming** transport o‘tadi)*.

**2.** Temir yo‘l uzeli **mavjud**.

**3.** Yiliga 193,4 ming tonna meva-sabazavot yetishtiriladi (viloyatdagi ulushi 16 foiz, 1218 tonna, 1,6 mln dolllik eksport qilingan).

**4.** 48 ta (130 gektar) issiqxonada 10,5 ming tonna mahsulot **yetishtiriladi**.

**5.** Parrandachilik rivojlangan 2 296 ming bosh.

**6.** **30 dan** ziyod tarixiy obidalar **mavjud**.

**7.** Chorvachilik rivojlangan, yiliga 33,3 ming tonna go‘sht mahsuloti olinadi (viloyatdagi ulushi 11,3 foiz). Hozirda 140 ming bosh yirik shoxli qoramol, 360 ming bosh mayda shoxli qoramol yetishtirilmoqda.

**8.** **Tumanda qulay tadbirkorlik muhiti shakllangan,** faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2023 yilda 5,1 foizga o‘sib, viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan. Xususan, viloyat bo‘yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 7 foizga qisqargan. Buxoro, Kogon kabi shaharlarda esa bu ko‘rsatkich 12 foizga qisqargan.

### Zaif jihatlari

**1.** Meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlari **yetarli emas.** Masalan meva qayta ishlash 17,1 foiz *(hozirda 1 ta korxona 12,5 ming tonna (o‘rik, olma, pomidor, uzum) mahsulotni qayta ishlaydi)*.

**2.** **Sanoat ishlab chiqarishi qisqarmoqda,** 2023 yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1 trln so‘mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 2 foizga oshgan xolos. Taqqoslash uchun 2023 yilda sanoat ishlab chiqarish G‘ijduvonda 11,8 foizga, Qorovulbozorda 84,8 foizga, Romitanda 15,2 foizga oshgan.

**3.** Asosiy kapitalga investitsiyalar qisqargan. **2023 yilda** asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **631,6 mlrd** so‘mni tashkil qilib, **2022 yilga** nisbatan **1 foizga** kamaygan.

**4.** Ko‘p qavatli uy-joyga talab yuqori. Tuman aholisi 185,6 ming nafar bo‘lib, shundan 37,5 mingi yakka tartibdagi xonadonlarda va 764 tasi ko‘p qavatli uy-joylarda istiqomat qilib kelmoqda. Hozirda davlat xizmatlari markaziga **2,2 ming** nafar **fuqaro ariza topshirgan.**

**5.** Paxta xomashyosi qayta **ishlanmaydi** (43,5 ming tonna paxta yetishtiriladi).

**6.** 8 ta *(Mirzayon, Romish, Ibn Sino, Dalmunobod, Oxshix, Aleli, Mustaqillik va Zarafshon)* hududdagi fermerlarning 20 ming gektar hamda 2,4 ming gektar aholi tomorqalarida suv tanqisligi muammosi **mavjud**.

**7.** 384 ming gektar yaylovzorlardan deyarli foydalanilmasdan **kelinmoqda**.

### Imkoniyatlar

**1.** Mebel sanoatini rivojlantirish *(hozirda Oxshix MFYsida 145 ta xonadon mebel ishlab chiqaradi).*

**2.** Zarafshon daryosi bo‘yida 1 km masofada “**Sohil bo‘yi**” xizmat ko‘rsatish loyihasini amalga oshirish. Natijada 150 ta xizmat ko‘rsatish nuqtalari ochiladi, 250 ta ish o‘rni yaratiladi, 1,5 mlrd so‘m qo‘shimcha soliq tushumlari manbasi yaratiladi.

**3.** **4,5 ming gektarda eksportbop** *(qizil lavlagi, qizil loviya, mosh, loviya)* **10 ming tonna** mahsulot yetishtirish.

**4.** Yaylovzorlarning meliorativ holatini yaxshilash va tik quduqlar qazish orqali yirik shoxli qoramol sonini 2 ming bosh, qo‘y-echkilar sonini 18 ming boshga oshirish imkoniyati mavjud.

**5.** **Vino** va **konyak** ishlab chiqarish imkoniyati mavjud (1 200 gektar uzumzor).

**6.** **Navgadi MFYdagi** 31,3 gektar maydonda **Yangi O‘zbekiston** massivini tashkil qilish *(90 ta 7 qavatli uy-joy*

### Xavf xatarlar

**1.** Suv resurslari **kamayishi** qishloq xo‘jaligida o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

**2.** 2023 yilda qurilish ishlari 548 mlrd so‘mni tashkil etib, 12 foizga oshgan. Aholi soni esa 2023 yilda 2 foizga oshgan. Qurilishda o‘sishga erishilmasa uy-joy narxlari oshishiga olib keladi.

**3.** Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ish olib borilmayotganligi korxonalar rentabelligi pasayishiga va korxonalar zarar ko‘rishiga olib kelmoqda. Tumandagi korxonalar 2022 yilda 411 mln.so‘m, 2023 yilda 74 mln.so‘m zarar ko‘rgan, bu o‘z navbatida soliq bazasini qisqarishiga olib keladi.

| | |
|---|---|
| *barpo etish hisobiga 5 292 ta kvartira qurilib, 20 mingdan oshiq aholi uy bilan ta'minlanadi).* | |

## V. Kogon tumanining SWOT tahlili

### Kuchli jihatlari

**1.** Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida **qurilish materiallari** ishlab chiqarish tarmoq drayveri xisoblandi. (Qurilish materillari ishlab chiqarish korxonalari (40 foiz), oziq ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish (26,2 foiz), to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish (21,5 foiz)ni tashkil qilmoqda. *(332 ta sanoat korxonalaridan 120 tasi qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullannadi. )*

**2. Qulay joylashuv** *(Buxoro shaxar, Kogon shaxar, A-380 yo'l yoqasida).*

**3.** Mavjud 3 ta kichik sanoat zonalarida loyiharni amalga oshirish uchun barcha muxandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulangan. *(Amirobod, Yangi Hayot, Tutkunda)*

*(Tumandagi 3 ta kichik sanoat zonasida 17 ga yer maydonidagi 15 ta bo'sh lot (3 ga) yer maydonlarini auksion savdolariga sotish orqali qurilish maxsulotlari ishlab chiqarishda qo'shimcha hajmlarni jalb qilish imkoniyati mavjud hamda tumanda 15 ta yangi sanoat maxsulotlari ishlab chikarish korxonasi paydo buladi va byudjetga ko'shimcha 650 mln.sum tushum tushishiga erishiladi. )*

Bugungi kunda 38 ta parrandachilik (tuxum va go'sht) korxonalari **faoliyat ko'rsatib kelmoqda**.

Shuningdek, tumandagi 5500 dan ortiq xonadonlarda aholi parrandachilik faoliyati bilan **shug'ullanadi**.

**4.** Tumanda 881,4 ming bosh parranda mavjud bo'lib, 81,9 mln. dona tuxum **ishlab chiqarildi**.

*(Tuman drayverlaridan biri parrandachilik hisoblanadi va ushbu yo'nalishda kuchli mutaxissislar mavjud ushbu imkoniyatlardan foydalanib qo'shimcha paraandachilik yo'nalishida 20 dan ortik korxonalar tashkil etish imkoniyati mavjud va buning natijasida parranda maxsulotlari ishlab chiqarish hajmi 25 foizga oshishiga va byudjetgan qo'shimcha 250mln.sumdan ortiq tushum tushishiga erishiladi. )*

### Zaif jihatlari

**1. Meva-sabzvot maxsulotlarini saqlashda tumanda mavjud muzlatkichli quvvatlarining yetarli emasliligi.**

*(Tumandagi 7 ta muzlatkichlar quvvati 1930 tonnani tashkil etib, o'tgan 2023 yilda 15,9 ming tonna meva-sabzavot maxsulotlari yetishtirildi). Yetishtirilgan 15,9 ming tonna meva-sabzavotlar muzlatgichlarda saqlanganda qish mavsumida kamida ikki baravar qimmatiga sotish imkoniyati mavjud bo'lar edi va buning evaziga byudjetga ko'shimcha tushum tushurish imkoniyai bo'lishi mumki bo'ladi.*

**2. Sutni qayta ishlash darajasi past** *(Tumanda 56,7 ming.tonna sut ishlab chiqarilib, uni qayta ishlash uchun quvvati 720 tonna bo'lgan 2 ta korxona mavjud, Yetishtirilgan 56,7 ming tonna sut qayta ishlanganda yangi ish o'rinlari va byudjetga qo'shimcha tushum tushirish imkoniyati mavjud bo'ladi)*

**3. Meva-sabzvot maxsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash korxonalari mavjud emasligi.**

*(2023 yilda 8,0 ming tonna sabzavot, 6,7 ming tonna meva va rezavorlar, 1,2 ming tonna uzum maxsulotlari yetishtirildi, ushbu maxsulotlar qayta ishlanganda yangi ish o'rinlari va byudjetga qo'shimcha tushum tushirish imkoniyati mavjud bo'ladi)*

**4.** 2023 yilda tumanning **eksport** ko'rsatkichlari 31,3 mln dollardan 25,9 mln dollargacha tushgan.

### Imkoniyatlar

**1. Bahovuddin Naqshband** va **Sayid Amir Kulol** ziyoratgohlari orasidagi masofada xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun hunarmandchilik markazlari, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish obyektlari, savdo obyektlari boshqa obyektlarni tashkil etish imkoniyati mavjud.

***O'zbekiston** Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5 iyuldagi PQ-214-son qaroriga muvofiq, 2 ziyoratgohni bog'lab turuvchi 5 km masofadagi yo'l yokasida 11,3 gektar maydonning yer fondi toifasi o'zgartirilgan.*

**Niyoz Hoji MFY**da 6,1 gektar yer maydonida zamonaviy **istirohat bog'i** tashkil etish imkoniyati mavjud.

Buning natijasida 200 nafardan ortiq yangi ish o'rnilari yaratiladi.

### Xavf xatarlar

**1. Qishloq xo'jalik yerlarininng sho'rlanish darajasi yuqoriligi.** (natijada qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi boshqa tumanlarga nisbatan **ancha past**)

**2. Qishloq xo'jaligi yerlarida suv muammosi.** (Oxirgi ikki yilda 1000 gektar yer maydoni o'zlashtirildi ammo tumandaga melioratsiya tarmoqlari qo'shimcha qurilmadi va quvvati oshirilmadi natijada yangi o'zlashtirilgan xududlarda suv muammosi kelib chikishi xafi yuqori)

**3. Tadbirkorlarning boshqa hududga chiqib ketishi** *(elektr energiyasidagi mavjud muammolar uchun 10 dan ziyod tadbirkor boshqa hududga ko'chgan). Natijada byudjetga tushumlar kamayishiga olib keladi.*

**2.** Tumanda umumiy maydoni 200 gektar yer maydonida G‘ijduvon EIZning Kogon tumani filialida 74,5 gektar bo‘sh yer maydoni mavjud.

Bundan tashqari tumandagi 3 ta kichik sanoat zonalarida sotilmasdan turgan 15 ta lotlarni savdoga chiqarish va ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish orqali 700 ta yangi ish o‘rinlari tashkil etish mikoniyati mavjud.

**3.** Tumandagi Navro‘z, Mustaqillik, Yangi Hayot, Beklar va O‘rta cho‘l MFYlarida 25 gektar zaxira yer maydonida intensiv usulda **baliqchilikni rivojlantirish**.

Misol uchun:“Kogon Broller Fish” MCHJ negizida quvvaati 100 ming tonnaga teng 2,5 mlrd.so‘mlik intensiv usulda balikchilik loyihasi amalga oshirilgan. Ushbu loyihada 2 ta 0,5 gektar yer maydonida xofuzlar tashkil etilgan bo‘lib, mazkur xovuzlarda 1 mln. dona balik boqishga mo‘ljallangan.

Hovuzda asosan sazan, Afrika balig‘i turlari boqiladi. 1 oyga 40-50 tonnagacha balik olinadi. Yiliga 5 mlrd.so‘mlik baliq maxsulotlari yetishtiriladi. Navro‘z, Mustaqillik, Yangi Hayot MFYlarida qum shag‘al konlari mavjud bo‘lib, mazkur konlardan qum–shag‘al qazib olingandan so‘ng bo‘sh yerlarda hosil bo‘lgan ko‘llarda baliqchilik yo‘nalishida 15 gektar yer maydonida baliqchilikni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida yiliga 600 ming tonnadan ortiq balik yetishtirish imkoniyati mavjud.

**4.** “**Yetti pir**” ziyorati “**Sayid amir-Kulol**” va “**Bahovuddin Nakshband**” ziyoratgohlari joylashganligi hamda sayyohlik-ekskursion xizmatlarni rivojlantirish uchun qulay iqlimga egaligi va tumanda 63 ta madaniy meros **obyektlari bor**. (Ziyoratgoxlarni bog‘lab turuvchi yo‘l yoqasida xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etish imkoniyati mavjud, buning natijasi qo‘shimcha 150 ta ish o‘rinlari hamda byudjetga qo‘shimcha tushum tushishiga erishiladi.)

**4. Tumanda muhandislik infratuzilma tarmoqlari talab darajasida emas** *(elektr energiya, tabiiy gaz, yo‘l, kanalizatsiya doimiy muammolar).*

**5. Aholi daromadining pastligi** *(rasmiy daromadi 5 mln so‘mdan yuqori bo‘lganlar 7 foiz, viloyatda – 19 foiz).*

*(Tumandagi aholining 2023 yilda davomida o‘rtacha oylik ish haqqi 3,4 mln so‘mni tashkil etadi)*

**6.** 2023 yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya miqdori 2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2022 yilga nisbata o‘sish sur’ati 50,4%.

# VI. Kogon shahrining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** *(Buxoro shahar, Kogon va Qorovulbozor tumanlari bilan chegaradosh, shahar hududidagi A-380 xalqaro yo'lidan kuniga 4,5 ming transport o'tadi).*

**2. Tadbirkor aholi** *(tadbirkorlik subyektlari – 1428 ta, tadbirkor xotin qizlar soni – 638 ta chakana savdo – 121,3 mlrd.so'm va xizmatlar hajmi – 252,9 mlrd.so'm).*

**3. "Ishchan" aholi** *(mehnat resurslarining 77,6 foizi band, viloyatda – 74 foiz).*

**Temir yo'l hizmati** *(2023 yilda temir yo'l xizmatlari doirasida yo'lovchi tashish xizmati 823,3 ming kishini, yuk tashish aylanmasi 6 969,1 tonna, eksport 99 286 tonna, import 23 002 tonnani tashkil etgan).*

**4.** Xizmat ko'rsatish yo'nalishida kichik biznesning ulushi yuqori bo'lib, ushbu yo'nalishda 873 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda.

## Zaif jihatlari

**1. Yuqori darajadagi kambag'allik** *(kambag'allik darajasi 8,4 foiz, viloyatda – 11,8 foiz).*

**2. Mehnat resurslari yetishmovchiligi** *(iqtisodiy nofaol aholi ko'p, viloyatdagi ulushi – 14,6 foiz, tumandagi mehnat resursiga nisbatan – 20 foiz, aholi sonidagi yoshlar ulushi 23,2 foiz bo'lib, viloyatdagi o'rtacha 32,5 foizdan past).*

**3.** Tadbirkorlar faoliyatini tiklash tizimi yo'q (179 ta yoki 25,2 foiz tadbirkor faoliyatini to'xtagan).

**4. Xorijiy investitsiyalar** ishtirokidagi korxonalar soni atigi 14 ta.

## Imkoniyatlar

**1. 1,2 gektar** bo'sh yer maydonlarini lotlarga ajratgan holda zamonaviy savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish.

**2.** KSZ va YOSZlarda qurilish materiallar, tekstil va to'qimachilik, mebel va qog'oz ishlab chiqarish.

**3. Maxtumquli MFY** hududida shahar hokimligi balansida bo'lgan sobiq 28 sonli harbiy qismning 3,6 gektar yer maydoni va 7628 kvadrat metrga ega bino va inshootlari **mavjud**. Mazkur obyektni auksion savdolari orqali sotish, ushbu bino va inshootlar o'rniga urbanizatsiya dasturi asosida zamonaviy birinchi qavatida servis va xizmat ko'rsatish obyektlari hamda yuqori qavatlarida ko'p qavatli uy joylar qurish **mumkin**.

Natijada, 35 nafardan ortiq yangi ish o'rnilari yaratiladi, yiliga 8 mlrd.so'mlik xizmatlar xajmi ko'rsatiladi hamda 1,1 mlrd.so'mlik byudjet tushumlari tushishiga erishiladi.

**4.** Shaharda **115 ta** yangi servis obyektlari ishga tushirilishi natijasida **2100 nafar** aholini daromadli mehnat bilan band **qilinadi**.

**"Buxoro agro klaster" AJga** qarashli 12,3 gektarda joylashgan, hozirgi kunda shahardagi ekologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan **"Kogon paxta tozalash zavodi"**ni boshqa hududga ko'chirish hisobidan shahar axolisiga sifatli va zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish hamda aholi dam oladigan ko'ngilochar maskanlar, jumladan, akvapark, attraksionlar, mehmonxonlar, madaniyat saroyi, gipermarket, restoranlar va savdo obyektlarini qurish imkoniyati **mavjud**.

## Xavf xatarlar

**1. Eksport** 2024 yilda 11,1 mln **dollar reja prognoz o'rnatilgan** *(2023-yilda 6,9 mln dollar reja prognoz (sanoat mahsulotlari) – yil yakuni bilan 8,7 mln.doll. yoki 125 foizga bajarilgan).*

**2. Hududiy loyihalar doirasida investitsiya hajmining pasayishi** *(2024 yilda investitsiya hajmining kamayish ehtimoli mavjud).*

**3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar kamayishi kuzatiladi** *(Elektr energiyasi hamda tabiy gazni komunnal tashkilotlar tomonidan ogohlantirishsiz va ko'p marotaba o'chishi hisobiga shaharning sanoat maxsulotlarining hajmi yildan yilga prognoz ko'rsatgichlarga chiqish qiyin bo'lmoqda.)*

**4. Soliq qarzdorligi** oshib ketishi *(2023 yilda qarzdorlik 673,4 mln so'mga yetgan).* Soliq qarzi oshish sababli tahlil qilinganda, Kogon shaharda jami 173 ta korxonaning 01.01.2024 yil holatida 673,4 mln so'mni tashkil qilib, Shundan 7 ta korxonaning qarzdorligi 335,8 mln so'm.ni tashkil etgan. Buning sababi, 1) "Kogon shahar 97-sonli avtokorxona" MCHJning 120,9 mln.so'm, "GRAND ALI TORG" OKning 38,5 mln.so'm, "MAXSUS TEXNIKA XXI" MCHJning 30,1 mln.so'm, "KOGON LATIF FOZIL" MCHJga 26,8 mln.so'm va "KOGON QIRILISH G'ISHT" MCHJga 25,9 mln.so'mlik soliq qarzdorligi mavjud; 2) Qolgan korxonalar hisobidan 431,2 mln.so'mga to'g'ri kelmoqda hamda ushbu korxonalarning soliq qarzdorligi majburiy undiruvga qaratilgan.

**5. Import** hajmining keskin oshib ketishi (**2023 yilda 31,6 mln** dollar, o'sish **138,5%**)

# VII. Olot tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

1. Tuman **Turkmaniston** Respublikasining **Lebap** viloyati bilan chegaradosh.

2. **Aholisi tadbirkor**, tadbirkorlik subyektlari – 1558 ta, tadbirkor xotin qizlar soni – 651 ta, chakana savdo – 129 mlrd so‘m, xizmatlar hajmi – 166,5 mlrd so‘m, mehnat resurslarining 79,6 foizi band (viloyatda – 74 foiz).

3. Tumanda 28 800 tonna paxta xom ashyosi **yetishtiriladi**.

4. Tumanda 3 ta kichik sanoat zonasi, 1 ta yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalari **mavjud**.

5. **Xo‘jadavlat-Farab** xalqaro temir yo‘l punkti **mavjud**.

6. **“Olot Asaka Tekstil” MCHJ** negizida umumiy qiymati**150 mlrd** so‘mlik to‘quv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi **amalga oshirilmoqda**.

7. 25 km yuqori bosimli sanoat gaz tarmog‘i tortilganligi.

8. 2023 yilda 19 ming tonna go‘sht, 77 ming tonna sut, 25 mln dona tuxum, 0,9 ming tonna baliq, 391 tonna jun, 42,7 ming dona qorako‘l teri yetishtirilgan.

9. 70,5 ming tonna sabzavot, 10,9 ming tonna meva va rezavorlar, 7,6 ming tonna uzum yetishtirilgan.

## Zaif jihatlari

1. Meva-sabzavot, teri, jun maxsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash korxonalari mavjud emas.

2. Tumanda sayyohlarni jalb etuvchi tarixiy yodgorliklar yo‘q.

3. Yirik sanoat korxonalari mavjud emas.

4. Viloyat markazidan 75 km uzoqlikda joylashgan.

5. Respublikada eng katta bojxona postlaridan biri joylashganligiga qaramasdan tumanning tashqi savdo ko‘rsatkichlari viloyatda quyi o‘rinlarda, 2023 yilda eksport 8 mln.doll., import 4,2 mln.doll.ni tashkil etgan.

## Imkoniyatlar

1. Tumanda to‘qimachilik loyihalarni ishga tushirish hisobiga 700 ta yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati mavjud.

2. Joriy yil yakuniga qadar 4 ta loyihalarda 51 mln dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtiriladi *(**“Euroasia transportation and logistics company” MCHJ** negizida zamonaviy logistika markazini tashkil etish loyihasida 5 mln dollar xorijiy kredit; **“Olot asaka tekstil” MCHJ** negizida aralash tolali ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil qilish doirasida 8 mln dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtiriladi).*

3. Tumanda M-37 xalqaro yo‘l bo‘yidagi auksionga chiqarilgan 3,5 gektar maydonda xizmat ko‘rsatish loyihalarini amalga oshirish imkoniyati **mavjud**.

4. 2024 yilda umumiy qiymati 208 mlrd so‘m bo‘lgan 30 ta loyihani ishga tushirish va 702 nafar fuqaroni ish bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan.

5. Sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan 35 ming gektar maydonda va **Dengizko‘l** tabiiy ko‘lida **artemiya** mahsuloti yetishtirish loyihasini tashkil etish imkoniyati **mavjud**.

6. Foydalanishdan chiqqan 1574 gektar yerlarni o‘zlashtirish hisobiga qishloq xo‘jaligi va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish imkoniyati **mavjud**.

7. Tumanda yangi tashkil qilinayotgan sanoat zonasida elektrotexnika va boshqa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish **mumkin**.

## Xavf xatarlar

1. Elektr-energiyasining doimiy qisqa uzilishlari hamda tabiiy gaz ta’minoti bilan bog‘liq muammolar **mavjud**.

2. Tumanda qishloq xo‘jaligi yerlari nasos agregatlari orqali sug‘orilishi maxsulotlarning tan narxining **oshishiga sabab bo‘lmoqda**.

3. Tumanning asosiy qishloq xo‘jaligi yerlarining cho‘l xududida joylashganligi hamda yoz faslining keskin isib ketishining qishloq xo‘jaligida mahsulotlar yetishtirishga **salbiy ta’siri mavjud**.

4. Ayrim xududda yer maydonlarining sho‘rlanish darajasi **yuqori**.

5. Tumanda faoliyat yuritib hisobotlarni boshqa tumanda yuritilayotgan tadbirkorlar **mavjud**.

6. Tumandagi qishloq xo‘jaligi yerlarining sho‘rlanish darajasi **yuqori**.

# VIII. Peshku tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

**1.** Tumanda yirik yengil sanoat korxonalari va paxta xomashyosi mavjud *(“Zuhal hunar zar” MCHJ 2,6 mlrd so‘m va “Peshku tekstil ko‘rki” MCHJ 1,6 mlrd so‘m xom ashyo ishlab chiqaradi).*

**2.** Tumanda 7 turdagi qurilishbop tabiiy xomashyolar, jumladan granit 3829 ming $m^3$, grafit 9171 ming $m^3$, marmar 16 413 ming $m^3$ va boshqa ma’danlar 22 319 ming $m^3$ mavjud.

**3.** **“Acwa Power”** tomonidan quvvati 500 mVt bo‘lgan **shamol** elektrostansiyasi barpo **qilinmoqda**.

**4.** **“Buxara Pesh Tex" MCHJ** negizida 22,3 mln dollarlik to‘quv - trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi **amalga oshirilmoqda**.

**5.** **“Peshku agroklaster yog‘-moy" MCHJ** negizida 35 ming tonna chigitni qayta ishlash loyihasi ishga tushmoqda.

**6.** 2023 yilda yetishtirilgan: paxta 34,4 ming tonna, g‘alla 62 ming tonna, kartoshka 38,1 ming tonna, meva-sabzavot 145 ming tonna, poliz 40 ming tonna, go‘sht 22,4 ming tonna, sut 118,6 ming tonna, tuxum 28 mln dona, baliq 750 tonna, asal 225 tonna, jun 500 tonna, teri 71,6 ming dona.

**7.** **Ibn Sino**, **Sadir**, **Deycha**, **Turkiston** va **Valfajir MFY**lardagi 120 gektar issiqxonalarda yiliga 9200 tonna pomidor va bodring **yetishtirilmoqda**.

## Zaif jihatlari

**1.** Sanoat va xizmat ko‘rsatish korxonalarini uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uchun barqaror elektr energiyasi bilan **ta’minlanmagan**.

**2.** Sanoatda tabiiy gaz yetkazib berish imkoniyati mavjud emas.

**3.** Tumanda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash loyihalari **yetarli emas**. *(Hozirda ushbu yo‘nalishda korxonalar soni **6 ta**ni tashkil etadi)*

**4.** Tumanda transport logistika markazi **mavjud emas**.

## Imkoniyatlar

**1.** To‘qimachilik loyihalarini ishga tushirish hisobiga 3300 **ta** yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati mavjud.

**2.** Yil yakuniga qadar 3 ta loyihada 50,1 mln doll xorijiy investitsiya va kreditlar (**“Peshku global textile oil”** 32,1 mln dollar, **“Trigon international Co LTD”** 8,3 mln dollar) **o‘zlashtiriladi**.

**3.** **“Malishoyak”** mahallasida 8,7 gektarda tashkil qilinayotgan **kichik sanoat zonasida** 100 ta sanoat loyihalarini amalga oshirish, 2 000 ta ish o‘rni yaratish imkoniyati **mavjud**.

**4.** Umumiy qiymati 419 mlrd so‘m bo‘lgan 30 ta loyihani yil yakuniga qadar ishga tushirib, 1500 nafar fuqaroni ish bilan ta’minlash **mumkin**.

**5.** Turkiston massividagi 250 gektar yer maydonida bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlari yetishtirish imkoniyati **mavjud**.

**6.** 2000 gektar yerlarni qayta o‘zlashtirish imkoniyati **mavjud**.

**7.** Xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun 150 ta yer maydonini auksionga chiqarish imkoniyati **yaratilgan**.

**8.** Ibn Sino, Sadir, Deycha, Turkiston, Navbahor, Kamolot, Valfajir va Bog‘imuoso MFYlarda 2024 yilda 200 gektar, 2025 yilda 300 gektar issiqxona tashkil qilish **mumkin**.

## Xavf xatarlar

**9.** Elektr-energiyasining doimiy qisqa uzilishlari hamda sanoat zonalari tabiiy gaz ta’minoti bilan muammolar **mavjud**.

**10.** Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orishda suv tanqisligi muammosi **yuzaga kelmoqda**.

**11.** Yer maydonlarining sho‘rlanish darajasi **yuqori**.

# IX. Romitan tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** (*Xorazm viloyati, Buxoro, Vobkent, Jondor, Peshku tumanlari bilan chegaradosh.*

**2. Tadbirkor aholi** (*3 378 ta*)

**3. "Ishchan" aholi** (*80 foizi band, viloyatda – 76,5 foiz*).

**4. Unumdor yer** (*paxta hosildorligi 40 sentner*)

**5. Boy diniy va tarixiy meros** *"Yetti pir" ziyoratgoxlaridan Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy maqbaralari muvjud (tumanda 27 ta obyekt bor).*

**6.** Sanoat sohasida, yengil sanoat (*50 foiz*), oziq-ovqat (*15 foiz*), qurilish material (*22 foiz*)

**7.** Tuman hududida "**Bukhara Desert Oasis & Spa**" korxonasi tomonidan turizm klasteri **tashkil qilingan**.

**8.** Tumanning **Xosa**, **Marziya**, **Samosiy**, **Azizon** **MFY**lari turizm mahallariga **aylantirilgan**.

## Zaif jihatlari

**1.** Tumanda transport logistika markazi **mavjud emas.**

**2.** Sanoat korxonalarining to'la quvvatda ishlashiga ta'sir etuvchi **salbiy omillar mavjud** (*xomashyoga bo'lgan talablar, raqobat, xaridor topishdagi muammolar*).

**3. "Hufiyona"** iqtisodiyot darajasi **yuqori** (*tadbirkorlar tomonidan ishchilarga maoshning 20 foizi "konvert" usulida berib kelinmoqda*).

**4.** Korxonalarni uzluksiz faoliyat ko'rsatishida elektr energiyasi ta'minoti uzulishlari **kuzatiladi**.

**5.** Yangi, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega texnologik uskunalari bilan jihozlangan meva-sabzavot va go'shtni qayta ishlaydigan korxonalar **mavjud emas**.

## Imkoniyatlar

**1. Bo'sh turgan va samarasiz** 11 ta davlat obyekti bor *(birgina Gazli MFYdagi sobiq neftgaz sohasiga tegishli bo'sh turgan binolarni berish orqali investorlarni jalb qilish imkoni mavjud).*

**2. G'ijduvon** EIZ filialida 150 dan ortiq loyihalarni ishga tushirish (1,4 trln so'mlik).

**3. Romitan** tumanida umumiy maydoni 300 gektarga yaqin zamonaviy energiya tejamkor issiqxona xo'jaliklari tashkil etilgan. Bundan tashqari tumanda 1000 gektardan ortiq uzumzorlar, 1400 gektardan ortiq mevazorlar mavjud bo'lib logistika markazi tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

**4.** Tumanning cho'l hududida byudjet mablag'lari hisobidan 49,3 mlrd so'm mablag' ajratish evaziga 50 gektar yer maydonida sun'iy suv ombori hamda uning atrofida ko'ngilochar dam olish maskanlari va voyish usulida 1000 gektar **uzumzor** va **zamonaviy turar joylar** tashkil etish taklif qilinadi. Bundan tashqari tashrif buyuruvchilar sonini 180 ming nafarga yetkazish imkoniyatlari mavjud.

**5. Turkiya Respublikasi**ning "**Akgun Elektrik Muhendislik**" kompaniyasi tomonidan **Marziya** hududda mavjud bartaraf etilgan quduqlarni kapital ta'mirlash yoki chuqurligi 2000 metrgacha bo'lgan yangi quduq burg'ilash ishlarini amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan 20 mlrd so'm miqdorida ssuda ajratish va Respublika darajasida tegishli tashkilotlar tomonidan xulosalar berilishi natijasida 24 MVT elektr energiya ishlab chiqarilib, 260 gektar issiqxona va 80 taga yakin kup kavatli uy joy xo'jaliklarini issiqlik energiya bilan ta'minlash imkoniyatlari **mavjud**.

## Xavf xatarlar

**1.** Yildan yilga sanoat korxonalarining asbob-uskunalari yaroqsiz holga kelib qolganligi sababli korxonalarning to'la quvvatda ishlay olmasligi, hamda o'z o'rnida sanoat korxonalarining to'la quvvatda ishlashiga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi, asbob uskunalarni sozlash, o'rnatish bo'yicha mutaxassislarga extiyoj **ortib bormoqda**.

**2.** Elektr-energiyasining doimiy qisqa uzilishlari hamda tabiiy gaz ta'minoti bilan bog'liq muammolar **mavjud**.

**3. Iqlim o'zgarishi.** Ob havoning keskin sovub ketishi yoki isib ketishining qishloq xo'jaligida mahsulotlar yetishtirishga salbiy ta'sirini ortirishi.

**4.** Issiqxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning eksport qilishdagi muammolarni vujudga **kelmoqda**.

**5.** Issiqxona xo'jaliklariga 2018-2019 yillarda xorijiy kredit mablag'lari foiz stavkasi nisbatan past bo'lsada o'zgaruvchan shartlar asosida ajratilgan. Natijada bugungi kunga kelib ajratilgan xorijiy kreditlarning foiz stavkalari 1,5 barobarga oshgan, bundan tashqari jamg'arma tomonidan ajratilgan kreditlar foizining ma'lum qismini **kompensatsiya ko'rinishida qaytarish to'xtatib qo'yilganligi**.

**6. "BCT Agrokompleks Cluster"** MCHJ korxonasiga paxta yetishtirish uchun 60 mlrd so'm imtiyozli kredit ajratilishi kechikayotganligi bundan tashqari ajratilgan 630 mlrd so'm kredit mablag'larining to'lov davrini 5 yil muddatga uzaytirilmaganligi.

**7.** Qishloq xo'jajaligi yerlarida **suv tanqisligi** muammosi **yuzaga kelmoqda**.

# X. Qorako'l tumanining SWOT tahlili

**Kuchli jihatlari**

**1. Qulay joylashuv** (Jondor, Olot va Romitan tumanlari, Turkmaniston bilan chegaradosh,).

**2. Sanoat rivojlangan.** Bugungi kunda tumanda 275 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, 4 tasi yirik.

**3. Transport va logistika imkoniyatlari yuqori.** Tuman orqali xalqaro temir yo'l, avtomobil yo'llari o'tgan va mahalliy aeroport mavjud.

**4. Davlat ahamiyatidagi yirik loyihalar amalga oshiriladi.** "GAS CHEMICAL COMPLEX MTO CENTRAL ASIA" MCHJ tomonidan 3 mlrd.dolllik metanoldan olefin olish texnologiyasi asosida gaz kimyo kompleksini qurish va gaz kimyo texnologik klasterini tashkil etish loyihasi amalga oshirilmoqda.

**5. Diniy, tarixiy meros va turizm infratuzilmalari mavjud.** Qadimgi Poykent shaxarchasi, Bad-Osiyo, Baykantdagi katta Masjidi-Jome' va milodiy 854-855 yillarda qurilgan oliy imoratlar, 100 dan ortiq uy mexmonxonalar mavjud.

**6. Ko'p miqdorda aholini ish bilan ta'minlash imkoniyati mavjud.** 85 ta to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona mavjud.

**7. Chorvachilik rivojlangan.** 22 ta chorvachilik va 28 ta baliqchilik xo'jaligida yiliga 161 ming bosh yirik shoxli, 308 ming bosh mayda shoxli va 650 tonna baliq yetishtiriladi.

**Zaif jihatlari**

**1.** Tumanda markaziy kanalizatsiya tizimi **mavjud emas**.

**2. Eskirgan infratuzilma** (elektr tarmog'ining **16 foizi**, ichimlik suvi – **32 foizi** ta'mirtalab, Transformatorlarning **42 foizi 40** yildan ortiq ishlagan).

**3.** Sanoat korxonalari joylashgan hududlarning ekologik holati **yaxshi emas**.

**4. Aloqa va ma'lumot alshuv tezligi pastligi** aloqa va axborotlashtirish xizmatlaridan foydalanish **darajasi past**, jumladan internet tezligi **past**, tumannig barcha hududlariga internet **yetib bormagan**.

**5.** Yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlash quvvatlari **majud emas.** Tumanda **107,8 tonna** sut ishlab chiqarilib, uni qayta ishlash uchun quvvati **50 tonna** bo'lgan **1 ta** korxona mavjud.

**Imkoniyatlar**

**2. Turkmaniston**ga va boshqa xududlarga yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotni sotish uchun agrologistika markazlarini tashkil etish **mumkin**.

**3.** Tuman markazidan oqib o'tuvchi **"Amu-Qorako'l"** kanali atrofida **"Soxil bo'yi"** turizmini tashkil etish **mumkin**.

**4.** Sport-sog'lomlashtirish markazlari, tabiiy shifobaxsh tuz qatlamlaridan foydalangan holda davolash maskanlarini barpo etish **mumkin**.

**5. "Qadimgi Poykent shahri"** arxeologiya merosi obyekti hududida **"Ochiq osmon ostidagi muzey"** tashkil etish **mumkin**.

**6.** G'alla va boshqa erta pishadigan ekinlardan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekiladigan jami 5441 gektar yer maydoniga 400 gektariga sabzavot, 250 gektariga poliz, 604 gektariga moyli ekinlar, 242 gektariga dukkakli don ekinlari, 210 gektariga sholi, 3735 gektariga oziqa mahsulotlarini ekish **mumkin**.

**7.** Tumanda Hindiston davlati bilan sherikchilikda "**ACHARYA**" universitetiga boshqa xududlardan abituriyentlarni jalb etish va shu orqali xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish **mumkin**.

**Xavf-xatarlar**

**1.** Elektr-energiyaning doimiy qisqa uzilishlari kuzatiladi hamda tabiiy gaz ta'minoti bilan bog'liq muammolar **mavjud**.

**2.** Tumanda muhandislik infratuzilma tarmoqlari talab darajasida **emas** (elektr energiya, yo'l, kanalizatsiya doimiy muammolari **mavjud**).

**3.** Yerlarni sug'orish tizimida bir necha yillardan buyon rekonstruksiya qilinmaganligi sababli **suvdan foydalanish samaradorligi kam** va 30 foizgacha suv yo'qotilishi kuzatilmoqda.

**4.** Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning o'sishi suratlari **sekin**. Dehqonchilik mahsulotlari viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan 4,5 foizga, chorvachilik 3,9 foizga kam yetishtirilmoqda.

**5.** Agrar soha uchun xos bo'lgan xatarlarning ortib bormoqda. Jumladan, noqulay ob-havo sharoitlari, turli hashoratlarning ko'payshi, ayrim turdagi mahsulotlarning ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida ular narxining keskin pasayib ketishi kuzatiladi.

**6. Eroziya, qurg'oqchilik va tuproq sho'rlanishi**. Vegetatsiya mavsumida suv tarmoqlarining o'rta va quyi oqimi joylashgan hududlarda suv hajmining kamayib ketadi.

# XI. Qorovulbozor tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** (Qashqadaryo viloyati (**74** km), Navoiy viloyati (**59** km), Olot tumani (**35** km), Buxoro (**63** km).

**2. Ishchan aholi** (mehnat resurslarining 96 foizi band, viloyatda 74 foiz).

**3.** Tuman hududida temir yoʻl stansiyalari **joylashgan**.

**4.** Tumanda elektr hamda gaz ta'minotlari tarmoqlarida uzilishlar **mavjud emas**.

**5.** Yangi oʻzlashtirilayotgan yerlarda, yangi uzumzor va intensiv bogʻlarni tashkil qilish imkoniyati **mavjud**.

**6.** Tumanda yiliga **4,5** ming tonnadan ortiq meva, 23,4 ming tonna sabzavot maxsulotlari va 6,3 ming tonna goʻsht va **14 ming tonna** sut yetishtiriladi.

Qazilma boyliklar (dominatlangan ohaktosh 898,5 ming tonna, ohaktosh 34705,1 ming m3, loyessga oʻxshagan jinslar 872 ming m3, mamarli ohaktosh 780,3 ming m3, qurilish qumlari 5412,5 ming m3, travertinga oʻxshash ohaktosh 5753,4 ming tonna).

## Zaif jihatlari

Zaif jihatlari

**1.** Xavo harorati **oʻta issiq**.

**2.** Sabzavot va mevalarni qayta ishlash korxonalari **mavjud emas**.

**3.** Paxta va gʻalla maxsulotlarini chuqur qayta ishlash korxonalari soni **yetarli emas**.

**4.** Logistika imkoniyatlari **cheklangan**.

**5.** Tadbirkorlar **oʻquvsiz** (90 foizi quyi reytingda).

**6.** Investitsiya muhiti talab **darajasida emas.** Tumanda bor yoʻgʻi **4 ta** xorijiy investitsiya ishtirokida korxonalar **mavjud**.

**7.** Yangi xujalik subyetlari **tashkil etilmayapti**. Tumanda 2024 yil 1 yanvar holatiga 912 ta korxona roʻyxatdan oʻtgan (viloyatda oxirgi oʻrinda), shundan 150 tasi faoliyat yuritmaydi.

## Imkoniyatlar

**1.** Tumanda yetishtiriladigan paxtadan ip-kalava, mato va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin. Bunda, 28 mln dolllik mahsulot ishlab chiqarish 5 mln doll investitsiya jalb qilish.

**2.** Qishloq xoʻjaligi sohasiga chuqur ixtisoslashgan.

**3.** Katta hajmda oʻzlashtirilmagan yer maydonlari mavjud.

**4.** Boʻsh turgan 10 ta davlat obyekti bor (joriy yilda 2,3 mlrd soʻm tushum ta'minlanadi).

**5.** Tumandagi 3 ta sanoat zonalarida 71 gektar yer uchastkalari boʻsh turibdi.

**6.** Tumanda 2,5 mln dolllik uskuna uchun **bozor mavjud** ("**Nano dekor**" MCHJ toshga ishlov berish, "**Vigour Eksport**" MCHJ tovuqchilikni kengaytirish).

**7.** Tumandagi choʻl zonasi mavjud boʻlib, Ekstrimal sport-turizmini tashkil etish imkoniyati **mavjud**.

**8.** Yer osti qazilmalardan samaralai foydalanish **mumkin** (bunda, noruda qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash boʻyicha loyihalarni amalga oshirish)

## Xavf-xatarlar

**1.** Ekin yerlarida suv yetishmovchilik muammosi **mavjud**.

**2.** Eksport kamayishi (meva-sabzavot eksporti 1,3 mln doll boʻlgan, ya'ni reja koʻrsatkichlari 3,6 mln dollga kam bajarilgan).

**3.** Tumanda malakali ishchi kuchi yetarli emas (Tumanda 19,5 ming aholi mavjud).

**4.** Mavjud 1 ta yirik sanoat korxonasida ishlab chiqarish xajmi **pasaygan**, tuman koʻrsatkichlari fakat ushbu korxonga **bogʻlanib qolgan**, yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil qilish **darajasi past**.

# XII. Shofirkon tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

1. Korxonalarning **yashovchanligi** 79,4 foiz (viloyat bo'yicha 79 foiz).

2. **Qurilish sohasida yuqori faollik**. Qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami faoliyat yuritayotgan korxonalardagi ulushi viloyatidagi eng yuqori. Xususan, tumanda bu ko'rsatkich 13 foizni tashkil etsa, viloyat bo'yicha 9 foiz.

3. **Aholi soni yuqoriligi**. Tuman aholisi 186,3 ming kishini tashkil etib **Buxoro** shahri (293 ming) **G'ijduvon** (322 ming kishi) tumanlaridan keyingi eng yirik tuman hisoblanadi.

## Zaif jihatlari

1. **Tumanda sanoat sohasi past darajada**. Xususan, tumandagi korxonalarning 13,7 foizi sanoat korxonalari hissasiga to'g'ri kelib bu viloyatdagi eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi (viloyat bo'yicha 14,3 foiz).

2. **Faoliyat yuritmayotgan fermer xo'jaliklari yuqori.** Faoliyat ko'rsatmayotgan fermer xo'jaliklari 60,7 foiz (viloyatda 54,2 foiz);

3. **Asosiy kapitalga investitsiyalar qisqargan**. Tumanda asosiy kapitalga investitsiyalar 404 mlrd so'mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan 12 foizga qisqargan. Viloyat bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar 45 foizga o'sgan.

4. **Tumanda 200 ming gektar lalmi yerlar samarasiz foydalanilmoqda**. Tuman meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashganiga qaramay ularni qayta ishlash va ularni saqlash uchun logistika markazlari mavjud emas 2023 yilda tumanda 86,7 ming tonna meva-sabzavot yetishtirilgan.

5. **Infrastruktura bilan bog'liq muammolar: a) Elektr energiyasi barqaror emas**. Shu sababli, sanoat sohasiga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish kamligi. Sanoat sohasi uchun kunlik 550-650 ming kv/soat elektr energiya talab etiladi *(amalda 350-360 ming kv/soat har kuni tumanda 2-4 soatga elektr uziladi);* **b)** Tuman hududidan temir yo'l tarmog'i o'tmagan va stansiyasi **yo'q**.

6. **Tumanda mavjud bino inshootlar foydalanilmasdan kelmqoda.** Tumanda 4 yildan buyon "**O'zagrokimyohimoya**" AJning
9 ta obyektidan ishlatilmasdan kelinmoqda.

7. **Mavjud tabiiy qazilma boyliklaridan qo'shilgan qiymat mahsulotlari ishlab chiqarilish yo'lga qo'yilmagan**. Tumanda 13,1 mln. $m^3$ qum-shag'al hamda 500 ming $m^3$ o'zlashtirilmagan bentonit xom-ashyolari **mavjud**.

## Imkoniyatlar

1. **Chakana savdoni rivojlantirish imkoniyatlari**. Tumanda chakana savdo aylanmasi viloyatdagi jami chakana savdo aylanmasining 4 foizini tashkil etadi xolos. Tumanning aholisi viloyatda uchinchi yirik ma'muriy hudud, tumanda chakana savdo aylanmasini rivojlantirish imkoniyati **mavjud**.

2. **Xizmatlar sohasini rivojlantirish imkoniyati mavjud.** 2023-yilda tumanda ko'rsatilgan xizmatlari hajmi 861,7 mlrd so'mni tashkil etib viloyatda bor yo'g'i 4 foiz ulushni qayd etgan xolos. Aholi soni tumanga monand bo'lgan Buxoro shahar va G'ijduvon tumanlarida xizmatlar hajmi mos ravishda 39 foiz va 12 foizni tashkil etgan. Tumanning aholi o'sishi va viloyatdagi yuqori aholisi hisobiga tumanda xizmat ko'rsatish hajmini rivojlantirish imkoniyati **mavjud**.

3. **investitsiya loyihalari.** Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi va o'rmon xo'jaligi balansidagi 200 ming gektar yer maydonida 2 ta investitsiya loyihalarini joylashtirish **mumkin**:

– tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish zavodini yo'lga qo'yish;

– **Sh.Rashidov MFY** hamda **Mingchinor MFY** xududidagi KSZda meva-sabzavotni qayta ishlash korxonalarini yo'lga qo'yish.

4. **sanoat sohasini rivojlantirish maqsadida**:

## Xavf xatarlar

1. **Faoliyat yuritmayotgan kichik biznes** 22,6 foiz.

2. **Qisqarayotgan eksport. Eksport** 21 foizga qisqarib 76,4 mln dollni tashkil etgan.

3. **Korxonalarning foydasi qisqarmoqda.** Tumandagi korxona va tashkilotlarning foydasi 2023 yilning 11 oyida 576 mln.so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 36 foiz yoki **326** mln so'mga **kamaygan**.

4. **Sanoatning qisqarish xavfi**. 2023 yilda viloyatda sanoat mahsulotlarini ishlab faqatgina Shofirkon tumanida qisqargan bo'lib boshqa barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan. Xususan, tumanda sanoat ishlab chiqarish 2023 yilda 814 mlrd.so'mni tashkil etib
18 foizga **qisqargan**.

5. **Xomashyoga tayangan qishloq xo'jaligi**. Qishloq xo'jaligining xom-ashyo yetishtirishga ihtisoslashuvi saqlanib qolmoqda, sohani sanoatlashuvi **past darajada**.

6. **Infrastruktura bilan bog'liq muammolar.** Ishlab chiqarish infratuzilmasining (energiya va gaz) yetarli darajada emasligi biznesni rivojlantirishga **to'sqinlik qiladi**.

| | |
|---|---|
| – **Vobkent** tumanidagi “Vobkent 110 kV” nimstansiyasidan **Shofirkon** tumandagi “**Anvar Ashur 35/10 kV**” nimstansiyasiga 110 kV kuchlanish tarmog‘ini tortish **mumkin**;<br><br>– **Tezguzar MFY**da joylashgan “**Shofirkon 110kV**” **T-2** transformator quvvatini 10 ming Kv.dan 25 ming Kv.ga oshirish **mumkin**.<br><br>**5.** Foydalanilmay kelingan binolardan samarali foydalanish maqsadida “**O‘zagrokimyohimoya**” AJga tegishli bo‘lgan 9 ta obyektni narxini 70 foizga pasaytirish va 5 yil muddatga bo‘lib to‘lash sharti bilan salohiyatli tadbirkorlarga sotish **mumkin**.<br><br>**6. Qazilma boyliklaridan unumli foydalanish** uchun Tumandagi tabiiy qazilma zaxiralardan kelib chiqib tumanda qum-shag‘al (SHPS) va bentonit xom ashyolaridan qurilish materiallarini ishlab chiqarish loyihalarini tashkil etib yangi ish o‘rinlarini yaratish **mukmin**.<br><br>**7. Infratuzilmani rivojlantirish** uchun Sanoat sohasida transport-logistika imkoniyatlarini oshirish maqsadida **Buxoro** viloyati “**G‘ijduvon**” **EIZ**ga tortilgan temir yo‘l liniyasidan **Shofirkon** tumani **Mingchinor MFY** xududiga **17 km** temir yo‘l liniyasi tarmog‘ini tortish **mumkin**. | |

# XIII. G'ijduvon tumanining SWOT tahlili

## Kuchli jihatlari

**1. Qulay joylashuv** *(Navoiy viloyati, Vobkent, Shofirkon tumanlari bilan chegaradosh, tuman hududidagi M-37 xalqaro yo'lidan kuniga 10 ming transport o'tadi).*

**2. Tadbirkor aholi** *(tadbirkorlik subyektlari – 4 257 ta, tadbirkor xotin qizlar soni – 9 ming chakana savdo – 819,8 mlrd.so'm va xizmatlar hajmi – 629,4 mlrd so'm bo'yicha viloyatda birinchi o'rinda).*

**3. "Ishchan" aholi** *(mehnat resurslarining 79 foizi band, viloyatda – 74 foiz).*

**4. Unumdor yer** *(paxta hosildorligi 40 foiz)*

**5. Boy diniy va tarixiy meros** *("Yetti pir" ziyorati Abduxoliq G'ijduvoniydan boshlanadi, tumanda 49 ta obyekt bor)*

## Zaif jihatlari

**1. Yuqori darajadagi kambag'allik** *(kambag'allik darajasi 12 foiz, viloyatda – 11,8 foiz).*

**2. Tadbirkorlar o'quvsizligi** *(86 foizi qoniqarli va quyi reytingda).*

**3. "Xufiyona" iqtisodiyot darajasi yuqori** *(yiliga 500 mlrd.so'mlik 100 dan ziyod mahsulotlar "yashirin" ishlab chiqariladi).*

**4. Eskirgan infratuzilma** *(elektr tarmog'ining 17 foizi, ichimlik suvi – 30 foizi ta'mirtalab, viloyatda eng yomon ko'rsatkich. Transformatorlarning 343 tasi yoki 44 foizi 40 yildan ortiq ishlagan).*

**5. Mehnat resurslari yetishmovchiligi** *(iqtisodiy nofaol aholi ko'p, viloyatdagi ulushi – 14,6 foiz, tumandagi mehnat resursiga nisbatan – 20 foiz, aholi sonidagi yoshlar ulushi 23,2 foiz bo'lib, viloyatdagi o'rtacha 32,5 foizdan past).*

**6. Tadbirkorlar faoliyatini tiklash tizimi yo'q** *(1 mingta yoki 23,5 foiz tadbirkor faoliyatini to'xtagan, viloyatda – 12,2 foiz).*

## Imkoniyatlar

**1. Ziyorat turizmi** *(turistlarni 2 kun olib qoladigan dastur qilib, qo'shimcha 15 mln.doll. turizm eksporti va 1,5 mingta ish o'rni yaratish imkoni bor).*

**2. Bo'sh turgan va samarasiz** 8 ta davlat obyekti bor *(birgina "Qo'rg'on" turizm mahallasidagi sobiq musiqa maktabini ijaraga berish orqali 50 ta hunarmandni jalb qilish imkoni mavjud).*

**3. Jami** 132 gektarli 398 ta **sanoatbop yerlar, sanoat zonalarida** 109 gektar **yer uchastkalari** sotilmasdan turibdi *(masalan, G'ijduvon zonasiga elektr va temir yo'l tarmog'i tortilsa, tadbirkorlar 340 mln.doll.lik 100 ta loyihani boshlaydi, 10 mingta ishchi o'rni yaratadi).*

**4.** Ikki kunlik xatlovda **tadbirkorlarga taklif qilsa bo'ladigan** 100 gektar yer aniqlandi *(21 gektari tadbirkorlik, 85 gektari o'rmon xo'jaligining o'rmon bilan qoplanmagan yerlari)*

**5. Yo'llar bo'yida tadbirkorlikni ko'paytirish** *(magistral yo'llar bo'yidagi 50 gektar yerda tadbirkorlar 1,5 trln so'm tikib, 5 ming aholini band qilishga tayyor).*

**6.** Foydalanilmayotgan **20 ming gektar** qishloq xo'jaligi yerlari mavjud *(bu yerlarda 650 ta ish o'rnini yaratish va 15 mln dollar eksport imkoniyati bor).*

**7. Bo'sh turgan xususiy ko'chmas mulklar** *(207 ta binoning 98 ming metr kvadrat maydoni bo'sh turibdi).*

**8. Foydalanilmayotgan xususiy noqishloq yer uchastkalari** *(5 yilda sotilgan jami 7,4 gektarli 135 ta yer uchastkasidan bor yo'g'i 2,3 gektarli 55 tasi yoki 41 foizi ishga tushirilgan, viloyat bo'yicha – 14 foiz).*

**9.** Bank kreditlari hisobiga barpo etilgan va **foydalanilmayotgan issiqxonalar** *(3 yildan beri mahsulot yetishtirilmayotgan 2 ta issiqxonani savdoga chiqarish orqali yangi investorlar jalb etiladi).*

**10. Ijtimoiy soha obyektlari hududida bo'sh turgan 1 gektar** yer uchastkalari mavjud *(10 ta xususiy ta'lim va tibbiyot tashkilotlarini tashkil qilish mumkin).*

## Xavf xatarlar

**1. Aholi daromadining pastligi** *(rasmiy daromadi 5 mln so'mdan yuqori bo'lganlar 7 foiz, viloyatda – 19 foiz).*

**2. Eksportning** 40 foizga **kamayishi** *(2023-yilda sanoat mahsulotlari – 15,6 mln dollar yoki 41 foizga, meva-sabzavot – 1,2 mln dollar yoki 50 foizga kamaygan).*

**3. Chakana savdoning sekin o'sishi** *(2023-yilda chakana savdoning o'sish sur'ati 2021-yildagi 16,7 foizdan 5,3 foizga tushib ketgan).*

**4. Tadbirkorlarning boshqa hududga chiqib ketishi** *(svet ko'p o'chgani uchun 50 dan ziyod tadbirkor Navoiyga ko'chgan, 11 tasi 45 mlrd.so'mlik zarar ko'rgan, 15 mln.doll.lik eksport yo'qotilgan. Masalan, "Parvoz-Humo Ravnaq trans" korxonasida svet 2 yil ichida ogohlantirishsiz 208 marta o'chgan).*

**5. Hududiy loyihalar doirasida investitsiya hajmining pasayishi** *(so'nggi 3-yilda investitsiya hajmi 21 mln.doll.ga yoki 32 foizga kamaygan).*

**6. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar kamayishi** *(oxirgi 3-yilda korxonalar soni 91 taga yoki 15 foizga pasaygan, ishlab chiqarish aholi jon boshiga 6,4 mln.so'mni tashkil etadi, viloyatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,5 baravar kam).*

**7. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning sekin o'sishi** *(dehqonchilik mahsulotlari viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan 4,5 foizga, chorvachilik esa 3,9 foizga kam yetishtirilmoqda).*

**8. Soliq qarzdorligi oshib ketishi** *(2023 yilda qarzdorlik 1,7 karra oshib, 3,4 mlrd so'mga yetgan).*

**9. Imtiyozlardan samarasiz foydalanish** *(10,6 mlrd.so'm imtiyoz va 111,3 mlrd.so'm kredit olgan 85 ta korxonada ishchi o'rni 467 taga kamaygan).*

**10. O'rta va yirik korxonalar soni sekin ko'payishi** *(so'nggi 3-yilda atigi 1 ta yirik korxona paydo bo'lgan, hozir 2 ta yirik va 64 ta o'rta korxona bor, har yili paydo bo'ladigan o'rta korxonalar soni viloyat o'rtacha o'sish sur'atidan 25 foizga kam).*